



SHASHMAQOMNING TARIXIY SHAKILLANISH DAVRI

Alimova Zumradxon G'afurovna

Andijon davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10405863>

ARTICLE INFO

Received: 12th December 2023

Accepted: 18th December 2023

Online: 19th December 2023

KEY WORDS

Mumtoz musiqa, Shashmaqom, nasr, mushkilot, Buzruk, Rost, Navo, sho'ba, Garduni Segoh.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Buxoro Shashmaqomining tarixiy shakillanish jarayonlarining nazariy asoslari bo'yicha munozaralar yuritiladi.

Kirish: O'zbek xalqi qadimdan o'zining boy milliy madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini, jahon madaniyatiga qo'shgan ulkan xissasi bilan alohida o'rin egallaydi. Jahon madaniyati va san'ati rivojida o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy musiqiy merosni butun dunyo tan olishining o'zi ham xalqimizning uzoq o'tmish tarixi, buguniga berilgan munosib bahodir. O'zbek xalqining boy musiqiy merosini targ'ib va tashviq qilish uchun yurtimizda ko'p harakat qilinmoqda.

Shashmaqom — Tojik, o'zbek, qoraqalpoq va buxoro yahudi xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shartsharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqa yo'nalishlarida orttirilgan ko'p asrlik ilmiyijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an'alarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodi san'atining qomusiy mahsulidir.¹

O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa ilmida maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan quy va ashulalarni ifodaladi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, 13-asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. 17-asrdan so'ng O'n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, 18-asrning o'rtalarida O'rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiyijrochilik faoliyatida Shashmaqom uzilkesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi nomlarida ham yuritildi. O'zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg'onaToshkent maqom yo'llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko'rinishdagi) maqomlar,

¹ Ibrohimov O., Maqom va makon, T., 1996;



surnay, dutor yo'llari va boshqalar Shashmaqom ta'sirida rivojlandi. O'tgan zamon bastakorligida keng qo'llanilgan amal, kor, naqsh, peshrav, savt, tarona, qavl kabi janrlarning noyob namunalari Shashmaqom tarkibida bizgacha yetib keldi².

Shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalari iborat. Shu qunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo'llarining qo'plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovoz, tanbur, surnay, dutor va boshqalar maqom yo'llarida bir qisimli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashular yaratdilar.

Maqomlar sozanda va xonandalar tomonidan yakka tarzda, shuningdek, jo'rovoqlik va jo'rnavozlikda ijro etib kelingan. Xususan, Buxoro amirlari saroyida eng so'nggi davrda jo'rnavozlik asosan, 2 tanbur, 2 doira (doirachilar xonanda ham bo'lgan), afg'on rubobi, sato yoki qo'biz, imkonga ko'ra bo'lamon cholg'ularidan iborat bo'lgan. Maqom ijrochiligida tanbur yetakchi soz hisoblanadi. Chunki u torlarini maqom pardalariga moslab sozlashda va maqom yo'llarini mukammal yangratishda birmuncha qulayliklarga ega. Doira esa sozanda va xonandalarning Shashmaqom qismlarini belgilangan usul negizida ijro etishlari uchun zarur vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har bir maqomning bosh tovushqatori o'ziga xos va nisbatan barqaror bo'lib, turkumning to'liq musiqiy ijro jarayonida uning pardalarida ayrim o'zgarishlar ham sodir bo'lib turadi. Chunki Shashmaqom shakllanishida maqomlar tarkibiga 12 maqomdan mazkur maqom pardalariga yaqin, kuy mavzui tabiatiga ohangdosh o'zga sho'ba va maqom yo'llari ham kiritilgan. Ularning ladtonalligi asosiy maqom yo'llariga ba'zan mos kelmasligi ham mumkin.

Shashmaqomni tashkil etgan maqomlarning har biri ikki — cholg'u (mushkilot) va ashula (nasr) yirik bo'limlaridan iborat. Cholg'u bo'limlarida bir xil nom bilan ataluvchi cholg'u qismlari mavjud bo'lib, ohanglari o'zlari mansub bo'lgan maqom kuyiga xos, doira usullari esa bir xildir. Ulardan asosiylari Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil deb ataladi. Bu kismlar maqom nomlariga qo'shib (mas, Tasnifi Buzruk, Tarjei Dugoh, Garduni Segoh kabi), ayrimlari esa bastakorlar nomi bilan birga (mas, Muxammasi Nasrullovi, Saqili Islimxon) ataladi. Ba'zi cholg'u qismlari alohida nomga ega (mas, Nag'mai Orazi Navo), Dugoh va Segoxda esa maqom nomi bilan qo'shib aytiladi (mas, Peshravi Dugoh, Samoi Dugoh, Xafifi Segoh). Shashmaqomning cholg'u qismlari xona va bozgo'y kuy tuzilmalaridan tashkil topadi. Bunda muntazam ravishda o'zgaruvchi xonalarning rivojlanishi uchun qo'llanadigan peshrav uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Tasnif, Tarje, Nag'mai Oraz, Samoi, Xafif kabi cholg'u qismlari bir-biriga o'xshash, kichik hajmli; Gardun va Peshrav birmuncha rivojlangan; Muxammas va Saqil yo'llari uzun va murakkab doira usullari negizida ijod etilgan. Shashmaqom cholg'u yo'llarining ichki tuzilishi murakkab bo'lsada, o'zining ravon ohangdorligi va rangbarangligi bilan shu maqom quy mavzulari bilan bevosita bog'likdir. Bu asarlar teran falsafiy va turfa lirik kayfiyatlarni ifodalaydi, tinglovchilardan esa eshitish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi³.

Odatda, Shashmaqom cholg'u qismlari birinketin yaxlit tarzda ijro etilgandan so'ng uning "Nasr" bo'limiga o'tiladi. Ashula qismlari ancha murakkab shakldagi sho'balalar, ularning tarona yoki shoxobchalaridan iborat. Bular ham yaxlit turkum tarzida ijro etiladi. Shashmaqom ashula

² [Shashmaqom - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom)

³ [Shashmaqom - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom)



bo'limlari tuzilish jihatidan bir-biridan farqlanadigan ikki toifa sho'balar guruhidan tashkil topgan; birinchisiga Saraxbor, Talqin, Nasr deb nomlanuvchi sho'balar va yakuniy Ufar qismi, ikkinchisiga esa, asosan, Savt va Mo'g'ulcha nomli sho'balar va ularning shoxobchalari kiradi. Shashmaqom nomdosh sho'balari (Saraxbori Buzruk, Saraxbori Navo va boshqalar)ning kuyohanglari turlicha bo'lsada, doira usuli va kuylariga bog'lab aytiladigan she'r vaznlari bir xildir. Sho'balarning ikkinchi guruhida Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar deb nomlanadigan shoxobchalar mavjud va ular shu nomdagi o'ziga xos doira usullarida yangraydi. Shashmaqom sho'balarining rivojlanishida avj va namudlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ashulaning yirik shakl olishi va mazmunan chuqurlashishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Namudlar maqom yo'llarida yakka avj yoki guruh tartibida erkin ishlatiladi. O'tmishda hofizlarning xohish va imkoniyatiga qarab namudlar soni (bir sho'bada 4 tagacha) o'zgarib turgan.

Shashmaqom ashula bo'limining birinchi guruh sho'balari turkumli tarzda yaxlit ijro etilganida, Saraxbor bilan boshlanib, so'ng uning taronalari (6 tagacha) o'qiladi. Taronalarning oxirgisi talqin doira usulida aytiladigan suporish qismi vositasi bilan Talqin sho'basiga silliq ulanib boradi. Talqin taronasi ijro etilib, nasr doira usulidagi suporish orqali Nasr sho'basi va uning taronalari o'tiladi (Nasr sho'ba namunalari bitta maqomda 2—3 tagacha yetadi). Oxirgi Nasr sho'basi, odatda, taronasiz o'qilib, bevosita Ufar ashula yo'llariga qo'shiladi va oxirgi suporish bilan turkum yakunlanadi.

Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi guruhidagi sho'balari o'zaro bog'lanmagan tarzda mustaqil ashula yo'llari hisoblanib, ularning har biri, asosan, 5 qismli turkumni tashkil etadi. Mas, asosiy Savt yoki Mo'g'ulcha ashula yo'lidan keyin unga ushbu kuy mavzuining yangicha vaznusulli (Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar) namunalari navbatmanavbat ulanadi.

Maqomlarning tarixiy, nazariy, estetik masalalari uzoq o'tmishdan shu kunga qadar musiqashunoslar tomonidan har tomonlama o'rganilmoqda. Xususan, Urta asrlar musiqasida Sharq mumtoz musiqasiga xos pardalad tuzilmalari keltirilib, maqomot hamda xalq musiqasiga xos tovushqator va usullar tuzilishi haqida mulohazalar yuritilgan. 19-asr boshi va o'rtalarida Shashmaqom oid maxsus yozma she'riy to'plam — bayozlar yuzaga keldi. Ularda maqomlarga aytilgan g'azal matnlari keltirilgan, maqom va sho'balari nomlari hamda ijro etiladigan ashulalar turkumining tartibi ko'rsatilgan. Komil Xorazmiy va uning o'g'li Muhammad Rasul tanbur chizig'i yordamida yozib olgan Xorazm maqomlari ham Shashmaqomning 19-asr namunalari haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Shashmaqom ashula yo'llarida o'zbek hamda fors mumtoz shoirlaridan Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Amiriy, Nodira, Zebunniso, Ogahiy va boshqalarning ishqiy lirik, falsafiy, nasihatombur, diniy mazmundagi g'azallari, shuningdek, xalq to'rtliklari jalb etilgan. Shashmaqom asosan, og'zaki tarzda avloddanavlodga ustozshogird an'anasida o'tib keldi. 1920-yillarda Buxoro, Samarqand, Toshkent shaharlarida maxsus musiqasiz maktablari, bilim yurtlari tashkil qilinib, ularda maqom va xalq musiqasiz namunalarini o'zlashtirishga e'tibor qaratildi; Ota Jalol, Otag'iyos Abdug'aniyev, Domla Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Abdusoat Vahobov, Usto Shodi Azizov kabi maqomdon sozanda va hofizlar yoshlarga saboq berish uchun jalb etildilar. Shashmaqomni ilk bor V.A.Uspenskiy Ota Jalol va Ota G'iyos ijrolaridan hozirgi nota yozuviga olib nashr ettirdi ("Shashmaqom, Shest muzmkalnix poem",



M. — Buxoro, 1924). Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodaning "Xorazm musiqiy tarixchasi" (M., 1925), Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (Samarqand — T., 1927) risolalari 20-asr maqomshunosligining dastlabki namunalari bo'lib, qimmatli ma'lumotlarga ega. Shashmaqomni o'rganishga, ayniqsa, 1950-yillardan ko'proq ahamiyat berila boshlandi.

I.Rajabov qalamiga mansub "Maqomlar masalasiga doir"⁴ (T., 1963) tadqiqoti o'zbek maqomshunosligi rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi. Tojikistonda B. Fayzullayev, Sh.Sohibov va F. Shahobovlar o'z ijrolarida notaga olib, V.M.Belyayev tahriri ostida Shashmaqomning 5 jildini nashr ettirdilar ("Shashmaqom", M., 1950—67). O'zbekistonda Shashmaqom ni Yunus Rajabiy o'zi va boshqalar sozanda va xonandalar ijrosidan yozib olib, ikki marta — "O'zbek xalq musiqasi" (V j., T., 1959) va "Shashmaqom" (I—VI j. lar, T., 1966—75) nomi bilan nashr ettirdi. Toshkent konservatoriyasida "Sharq musiqasi" kafedrasida (1972 yil), u asosda "Musiqiy sharqshunoslik" va "An'anaviy ijrochilik" (1992 yildan) kafedralari orqali shahrini ilmiy o'rganish va amaliy o'zlashtirish oliy, o'rta maxsus hamda boshlang'ich ta'lim bosqichlarida yo'lga qo'yildi. 1983 yildan boshlab maqom ijrochilarining respublika tanlovi (1991 yildan Yu.Rajabiy nomida) muntazam o'tkazib kelinmoqda⁵.

O'zbek xalqi musiqa boyliklari asosida yuzaga kelgan Sh., o'z navbatida, zamonaviy musiqa san'ati rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston bastakorlari va kompozitorlari o'z ijodida Shashmaqomdan keng ko'lamda foydalanishni davom ettirmoqdalar. Bulardan M.Ashrafiy, M.Burhonov, K.Jabborov, T.Jalilov, D.Zokirov, S.Kalonov, Yu.Rajabiy, T.Sodiqov, Fahr.Sodiqov, M.Tojiyev, O.Hotamov va boshqalar yaratgan ashula, romans, xor, simfoniya va opera asarlarida maqomlar salohiyatini oshirishda salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritishgan. "O'zbektelefilm" studiyasi tomonidan "Shashmaqom" filmi suratga olingan (1972, rej. T.Akromov). Hozirgi davrda O'zbekiston bo'ylab Shashmaqomni ijro etishga ixtisoslashgan professional ansambllar, havaskor badiiy jamoalar maqomlarni ijodiy o'zlashtirish hamda targ'ib etish borasida samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Xulosa:

Buxoro shashmaqomi jahon mumtoz ijrochiligi ichida eng murakkabligini, shifobaxsh va mo'jiza kompozitsiyalardan biri ekanligini anglatgani, Vatanimizning fahri va ajdodlarimizning serqirrali donishmandligidan darak berguvchi omil sifatida bizni quvontiradi. Oltita maqomdan birinchisi «Buzruk» nomi bilan mashhur bo'lib kelgan. Bu maqom haqidagi ma'lumotlar juda qadim zamondan beri, musiqa ilmiy risolalarida sharhlab kelingan edi. O'tmish olimlarining musiqiy risolalarida Buzruk muayyan lad tuzilmasini va unga mos kuy va ashulalarni ifodalagan. Buzruk maqomining jonli namunalarini bizgacha Shashmaqom tarkibidagi kuy va ashula yo'llari orqali ma'lumdir. Buxoro shashmaqomining 6 maqomdan iboratligi, bunda; Buzurg, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari semantik talqini, tasniflanishining sho'balari tahlil misollarida o'z yechimini topdi.ushbuda butun sho'balarining taktlardagi ijro kompozitsiyasi, maqomlarning nolanishidagi ma'no va tasniflanishi, doyra usullari majmuasining o'zga xosligi va qo'llanish sohasi, pardalardagi sozlanishlarda Tanbur va Dutor cholg'ularining notatsiyasi va ijrodagi bir-birovidan farqlanib borishi ayyon bo'ldi. Buxoro

⁴ Rajabov I., Maqomlar masalasiga doir, T., 1963;

⁵ [Shashmaqom - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom)



shashmaqomining qo'llanishida, har bir maqomning qo'llanish mezonlari ham imkon qadar tahlil va qiyoslar bayonida ochib berildi. Kelajakda yosh avlod tarbiyasida maqom yo'llari va undagi ijro tasniflarining xususiyatlarini o'rganish va o'rgatib borilishi davr taqozosi vazifalarimizga kiradi.

References:

1. Boltayev R. "Xorazm Tanbur va dutor maqomlarining munosabatlariga doir" // Shashmaqom saboqlari (ma'ruza va maqolalarning ikkinchi to'plami) – Toshkent: 2005. – B.134.
2. Boltayev R. "Xorazm maqomlarining parda va usul asoslari" // Shashmaqom saboqlari YuNESKO to'plami Toshkent: 2007. – B.47.
3. Ibrohimov O., Maqom va makon, T., 1996;
4. Rajabov I., Maqomlar masalasiga doir, T., 1963;
5. Matyoqubov O. Shashmaqom ilmi // Shashmaqom saboqlari (ma'ruza va maqolalarning uchinchi to'plami) –Toshkent: 2007. –B. 15-27.
6. [Shashmaqom - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom)